

# RESPONSIBLE CONSUMPTION AND PRODUCTION

## NAMANGAN STATE UNIVERSITY

### Oziq – ovqat va materillarni muqobil manbalardan olish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot

Namangan davlat universitetida meva-sabzavotlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish, noan’anaviy xom-ashyolardan to‘laroq foydalanish va ularni qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ozuqaviy biologik, profilaktik, shifobaxshlik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, Noan’anaviy xom ashyolardan yong‘oqni ko‘k po‘stlog‘i, qovun va tarvuz po‘choqlari, oshqovoq po‘chog‘i kabi ikkilamchi maxsulotlardan o‘z tarkibida inson hayoti uchun zarur ozuqaviy moddalar, vitaminlar, minerallar, ozuqaviy tolalar, gemitselyula loza, pektin kabi moddalarga boy bo‘lgan maxsulotlar ishlab chiqilmoqda.



Namangan davlat universiteti yetakchi tashkilot sifatida oziq-ovqat va materiallarni muqobil manbalardan olish bo'yicha nizomlarga ega bo'lib ushbu nizom asosida oziq-ovqat va materiallarni muqobil manbalardan olishga qaratilgan keng qamrovli ishlar yo'lga qo'yilgan.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**  
**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**



**ОЗИҚ-ОВҚАТ ВА МАТЕРИАЛЛАРНИ МУҚОБИЛ**  
**МАНБАЛАРДАН ОЛИШ БЎЙИЧА**

# НИЗОМ

Наманган 2022

**ОЗИҚ-ОВҚАТ ВА МАТЕРИАЛЛАРНИ МУҚОБИЛ МАНБАЛАРДАН**  
**ОЛИШ БЎЙИЧА**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Истеъмол бозорларида нархлар барқарорлигини таъминлашга ва монополияга қарши чораларнинг таъсирчанлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2022 йил 31 майдаги ПФ-145-сон Фармонида асосан аҳолини асосий турдаги озиқ-овқат ва зарур маҳсулотлар билан таъминлашни ташкил этиш, уларнинг хавфсизлиги ва сифатини тизимли назорат қилиш ҳамда ушбу маҳсулотлар нархларининг барқарорлигини таъминлаш мақсадида озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан олиш бўйича кенг қамровли ишлар йўлга қўйиш амалга оширилсин.

1. Республикада озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан фойдаланиш бўйича кенг қамровли ишлар амалга оширилсин.
2. Республикада озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалари ўрганиб чиқилсин.
3. Озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалари ҳажми миқдори ва уларни қайта ишлаш ҳолати таҳлил қилинсин.
4. Озиқ-овқат ва материалларни озуқавий қиймати ва хавфсизлиги бўйича тадқиқотлар олиб бориш йўлга қўйилсин.
5. Озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан олинган маҳсулотларни тадқиқ этишга университет олимлари ва ёш олимларни жалб этилсин.
6. Озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан олинган маҳсулотларни иқтисодий самарадорлигини йўлга қўйилсин.
7. Озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан олинган маҳсулотларни ички бозорни тўлдириш бўйича ҳолати маркетинг тадқиқотлари олиб бориш йўлга қўйилсин.
8. Озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан олинган маҳсулотларни ишлаб чиқаришга жорий этиш бўйича кенг қамровли тадбирларни амалга ошириш белгилансин.
9. Озиқ-овқат ва материалларни муқобил манбалардан олиш бўйича фундаментал амалий инновцион лойиҳалар ва хусусий тадбиркорлар маблағларини жалб этиш бўйича ишлар амалга ошириш белгилансин.